

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XUDAYBERDIYEV BAXTIYORJON MARIBJON O‘G‘LI

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIYAVIY HOLATI
TAHLILI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
in economic sciences**

Xudayberdiyev Baxtiyorjon Maribjon o‘g‘li

Ho‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati tahlili va auditini
takomillashtirish 3

Худайбердиев Бахтиёржон Марибжон угли

Совершенствование анализа и аудита финансового положения
хозяйствующих субъектов 27

Khudayberdiyev Bakhtiyorjon Maribjon o‘g‘li

Improving the analysis and audit of the financial situation of business
entities..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 58

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XUDAYBERDIYEV BAXTIYORJON MARIBJON O‘G‘LI

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIYAVIY HOLATI
TAHLILI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit»

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025-yil

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt3051 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xasanov Baxodir Akramovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Maxsudov Begmatjon Yuldashaliyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Shakarov Kulmat Ashirovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "4" 12 soat 16⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1869 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 17 11 kuni tarqatildi.

(2025-yil 17 " 11 daqi 104- raqamli reestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida global raqobatning kuchayib borishi sharoitida moliyaviy holat tahlili va auditini xalqaro standartlar talablari asosida yuritishning ahamiyati ortib bormoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, "jahonda moliyaviy holat tahlili va audit samaradorligini oshirish sohasida ko'plab zamonaviy innovatsion usullardan keng foydalanilmoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali moliyaviy holat tahlili jarayonini avtomatlashtirish samaradorlikni 10-15 foizga oshirishi va moliyaviy hisobotlarning aniqligini ta'minlashi mumkin"¹. Mazkur rezervlar moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Moliyaviy holat tahlili va audit vositasida xo'jalik subyektlari o'z aktivlari, kapitali va majburiyatlarini to'g'ri baholash, mablag'lar sarfini oqilona yo'naltirish hamda faoliyat samaradorligini oshirishga erishadi. Bu o'z navbatida, moliyaviy holat tahlili va auditini takomillashtirish sohasida tadqiqotlar o'tkazishni xalqaro darajadagi strategik vazifa qilib qo'yimoqda.

Jahonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini tahlil qilish va auditini takomillashtirish yo'nalishida keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, aktiv va majburiyatlarning to'g'ri baholanishi, moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish va korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun buxgalteriya hisobining zamonaviy usullarini qo'llash, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, shuningdek, audit jarayonlarining samaradorligini oshirish masalalari tadqiq qilinmoqda. Moliyaviy tahlil va audit tizimini rivojlantirish, korxonalar moliyaviy ko'rsatkichlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, shaffoflikni ta'minlash va moliyaviy xatarlarga nisbatan bardoshlilikni oshirish bu tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati tahlili va auditini takomillashtirish maqsadida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish, audit jarayonlarini raqamlashtirish va hisobotlar shaffofligini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan hamda bir qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, korxonalar moliyaviy hisobotini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS)ga moslashtirish, ichki audit tizimlarini kuchaytirish, soliq va buxgalteriya hisobini uyg'unlashtirish hamda moliyaviy tahlilda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonlari yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, Davlat audit instituti va Moliya vazirligi hamkorligida ichki moliyaviy nazorat va hisobot berish amaliyoti takomillashtirilib, korxonalar moliyaviy barqarorligini baholashda riskka asoslangan yondashuv joriy etildi. Bu choralar moliyaviy nazoratning samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda². Tadqiqotlarning ko'rsatishicha hozirgi paytda xo'jalik subyektlarida iqtisodiy tahlil ishlarini yuritish xususan moliyaviy holatni tahlil qilish globallashtirish jarayonidagi xalqaro talablar va

¹ www.icaew.com/insights/viewpoints-on-the-news/2023/jun-2023/A-new-era-how-technology-is-reshaping-audit).

² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisoboti, 2023-yil. URL: <https://www.mf.uz>

mezonlarga to'liq mos kelmaydi. Moliyaviy holatni tahlil qilish sohasida atroflicha va chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, muammoning tashkiliy va uslubiy asoslarini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Bu va boshqa holatlar mazkur dissertatsiya ishi mavzusining zamonaviyligi, dolzarbligi va ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "«O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida», 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 9-martdagi PF-6191-son "Mamlakatda moliyaviy boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish va davlat mablag'larining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 10-maydagi PQ-2022-son "Korxonalarda moliyaviy nazoratni kuchaytirish va audit tizimlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 27-noyabrdagi PQ-4030-son "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va ularni shaffoflik asosida tayyorlash choralari kuchaytirish to'g'risida", 2025-yil 15-sentabrdagi PQ-282-son "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati tahlili va auditini takomillashtirishning nazariy va uslubiy muammolari xorijlik iqtisodchi olimlardan A.F.Aksenenko, M.A.Vaxrushina, N.D.Vrublevskiy, T.P.Karpova, N.P.Kondrakov, V.F.Paliy, A.D.Sheremet, A.Arens va Dj.Lobbek, R.Dodj, R.Adams, D.R.Karmaykl, M.Benis, F.L.Defliz, G.R.Djenik, V.M.Ureyli kabilarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan³.

³ Друри К. Управленческий и производственный учет. – М.: ЮНИТИ, 2002. – 312 с.; Энтони Р., Рис Дж. Учет: ситуация и примеры. – М.: Финансы и статистика, 1993. – 560 с.; Аксененко А.Ф. и др. Управленческий учет на промышленных предприятиях в условиях формирования рыночных отношений. – М.: ООО «Нонпарель», 1994. – 412 с.; Вахрушина М.А. Бухгалтерский управленческий учет. – М.: ИКФ Омега-Л, 2009. – 528 с.; Врублевский Н.Д. Управленческий учет издержек производства: теория и практика. Монография. – М.: Финансы и статистика, 2002. – 352 с.; Карпова Т.П. Управленческий учет. – М.: ЮНИТИ, 2002. – 486 с.; Палий В.Ф. Управленческий учет. – М.: «Союзаудит», 1997. – 260 с.; Шеремет А.Д., Кондраков Н.П. Управленческий учет. – М.: ИД ФБК-Пресс, 2000. – 512 с. Арнс Э.А., Лоббек Дж.К. Аудит. пер.с англ/. Под.ред. проф.Я.В.Соколова – М.:«Финансы и статистика», 2001. -560 с.; Додж Р. Краткое руководства по стандартам и нормам аудита. пер.с англ/. М.: «Финансы и статистика», 2005. – 472 с.; Кармайкл Д.Р., Бенис М. Стандарты и нормы аудита. Пер. с англ/. М.: -Аудит. ЮНИТИ, 1995. – 421 с.; Ф.Л.Дефлиз, Г.Р.Дженик, В.М.О'Рейли и др. Аудит Монтгомери. пер.с англ/.под.ред.проф.Я.В.Соколова –

O'zbekiston olimlari E.F.Gadoyev, R.D.Dusmuratov, N.Yu.Jo'rayev, A.K.Ibragimov, A.A.Karimov, M.Q.Pardayev, A.X.Pardayev, N.S.Sanayev, B.A.Xasanov, K.B.Urazov, N.F.Karimov, B.Xamdamov, S.N.Tashnazarov, N.Sh.Xajimuratov, M.X.Xodjayeva, Sh.A.Tojiboyeva, N.E.Babaxalov, Sh.T.Ergashev, N.N.Ismatullayeva va boshqalarning ilmiy asarlarida moliyaviy holat tahlilining nazariy, uslubiy va amaliy muammolari o'z aksini topgan⁴. Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy adabiyotda moliyaviy holat tahlili va auditining muammolari yechimi yaxlit kompleks tartibda, maxsus mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Yuqorida ta'kidlangan muammolar tanlangan mavzuning nihoyatda dolzarbligi va zamonaviyligidan dalolat beradi hamda tadqiqot ishining asosiy yo'nalishlari mazmunini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati tahlili va auditini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

temir yo'l transporti korxonalarida moliyaviy holat tahlilini tashkil etishda tarmoq xususiyatlarini o'rganish;

xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holati tahlilining ko'rsatkichlari tizimi va baholash mezonlari tadqiq etish;

debitorlik va kreditorlik qarzlari dinamikasining korxonani to'lov qobiliyatiga ta'sirini tahlil qilish;

М.: Аудит, ЮНИТИ, 1997. – 542 с.; Адамс Р. Основы аудита. пер. с англ./под ред. Я.В.Соколова. – М.: ЮНИТИ, 1995. 398 с.

⁴Gadoyev E.F. va boshq. Buxgalter uchun amaliy qo'llanma. I-jild. – T.: "NORMA", 2010. – 343 b.; Dusmuratov R.D., Mamadiyarov D.U. Qishloq xo'jaligida boshqaruv hisobi: uslubiyot va amaliyot. Monografiya. – T.: "Moliya", 2008. – 148 b.; Jo'rayev N.Yu. va boshq. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: 2010. – 310 b.; Ibragimov A.K. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, audit va qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxini aniqlashni takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun disser. avto. – T.: 2002. – 34 b.; Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun disser. avto. – T.: 2009. – 32 b.; Pardayev M.K., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. 1-2 qism. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2001. – 256 b.; Pardayev A.X., Pardayev B.X. Boshqaruv hisobi. – T.: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 251 b.; Sanayev N.S. va boshq. Buxgalteriya hisobi asoslari. – T.: "Sharq", 2005. – 110 b.; Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. Monografiya. – T.: "Moliya", 2003. – 248 b.; Urazov K. B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. Monografiya. – T.: "Fan", 2003. – 168 b.; Xasanov B.A., N.F.Karimov, B.Xamdamov, S.N.Tashnazarov, N.Sh.Xajimuratov, M.X.Xodjayeva, Sh.A.Tojiboyeva. Moliyaviy tahlil. Darslik. – T.: "Iqtisodiyot", 2019. 736 b.; Babaxalov N.E. Temir yo'l transporti korxonalarida buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil uslubiyotini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun disser. avto. – T.: 2022. – 34 b.; Ergashev Sh.T. Avtomobil transporti korxonalarida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun disser. avto. – T.: 2021. – 31 b., Ismatullayeva N.N. Temir yo'l transporti korxonalarining iqtisodiy salohiyati tahlilini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun disser. avto. – T.: 2025. – 26 b.

xo‘jalik subyektlarning iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) holati va uni moliyaviy sog‘lomlashtirish modellarining qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

audit o‘tkazish jarayonida moliyaviy holat ko‘rsatkichlaridan ekspress va strategik prognozlash maqsadlarida foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish;

moliyaviy holat auditini o‘tkazishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar berish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati tahlili va auditini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati tahlili va auditini bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning analiz va sintez, tizimli yondashuv, statistik va moliyaviy tahlilning solishtirish, turkumlash, guruhlash, ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

temir yo‘l transporti korxonalari moliyaviy holatining moliyaviy koeffitsiyentlar asosidagi integral indeksi yordamida ishlab chiqilgan reyting baholash indikatorlari vositasida korxonalarning iqtisodiy nochorligini diagnostika qilish taklifi asoslangan;

xo‘jalik subyektlarining aktivlari va majburiyatlarini baholash uslubi sof aktivlar qiymatini shakllantirish uchun aktiv-xususiy kapital nisbati, majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti hamda 25%dan kam bo‘lmagan likvidlik darajasidan foydalanish orqali takomillashtirilgan;

milliy buxgalteriya balansini xalqaro moliyaviy hisobot shakllariga transformatsiya qilish jarayonida audit o‘tkazish uchun milliy standartlarni xalqaro standartlarga moslash, aktiv va majburiyatlarni qayta baholash, me‘yoriy farqlarni korreksiya qilish, muvofiqlik hisobotini shakllantirishdan iborat ko‘p bosqichli tekshiruv protseduralari taklif etilgan;

O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l tarmog‘i faoliyatining ko‘p omilli ekonometrik modeli asosida moliyaviy natijalarga ta’sir etuvchi tushum, tannarx, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar va soliqlar dinamikasining 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holat ko‘rsatkichlari xalqaro standartlar asosida turkumlangan;

joriy, tezkor va mutloq likvidlik ko‘rsatkichlarini hisoblash va korxona faoliyatiga joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan;

moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini tasniflash asosida korxonaning moliyaviy holatini kompleks baholashda ballik reyting tizimidan foydalanish taklifi asoslangan;

moliyaviy holat auditini o‘tkazish tartib-taomillari, bosqichlari, dasturi va audit rejasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan nazariy-uslubiy yondashuv va usullarga, rasmiy manbalardan olingan ma’lumotlarga, xususan,

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy statistik ma’lumotlariga, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotda joriy etilganligini tasdiqlovchi ma’lumotnomalar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan xarajatlar hisobi va ichki auditi borasida yuzaga keladigan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish jarayonida hamda mazkur yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni xalqaro standartlar asosida xarajatlar hisobi va ichki auditi amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda hamda iqtisodiyot yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida “Buxgalteriya hisobi”, “Audit” va “Moliyaviy hisobot tahlili” kabi fanlarni o‘qitishda qo‘llanma sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati tahlili va auditini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

temir yo‘l transporti korxonalari moliyaviy holatining moliyaviy koeffitsiyentlar asosidagi integral indeksi yordamida ishlab chiqilgan reyting baholash indikatorlari yordamida korxonalarining iqtisodiy nochorligini diagnostika qilish bo‘yicha taklif “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalar faoliyatida foydalanilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 4-noyabrdagi 09/358-24-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati korxonalarining iqtisodiy nochorligini samarali diagnostika qilish imkoniyati yaratilgan;

xo‘jalik subyektlarining aktivlari va majburiyatlarini baholash uslubi sof aktivlar qiymatini shakllantirish uchun aktiv-xususiy kapital nisbati, majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti hamda 25%dan kam bo‘lmagan likvidlik darajasidan foydalanish bo‘yicha taklifi “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalar faoliyatida foydalanilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 4-noyabrdagi 09/358-24-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sof aktivlar qiymatini shakllantirish jarayonlari takomillashtirilgan;

milliy buxgalteriya balansini xalqaro moliyaviy hisobot shakllariga transformatsiya qilish jarayonida audit o‘tkazish uchun milliy standartlarni xalqaro standartlarga moslash, aktiv va majburiyatlarni qayta baholash, me‘yoriy farqlarni korreksiya qilish, muvofiqlik hisobotini shakllantirishdan iborat ko‘p bosqichli tekshiruv protseduralaridan foydalanish taklifi “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalar faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 4-noyabrdagi 09/358-24-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida temir yo‘l transporti korxonalarida audit o‘tkazish protseduralari takomillashgan;

O'zbekiston Respublikasi temir yo'l tarmog'i faoliyatining ko'p omilli ekonometrik modeli asosida moliyaviy natijalarga ta'sir etuvchi tushum, tannarx, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar va soliqlar dinamikasining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati faoliyati prognozini shakllantirishda foydalanilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" aktsiyadorlik jamiyatining 2024-yil 4-noyabrdagi 09/358-24-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonaning moliyaviy natijalari ichki va tashqi omillar ta'sirida 2030-yilning yakunida 2024-yilga nisbatan 1,9 martaga o'sishi prognoz ma'lumotlari asosida aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha tadqiqotlar sharhi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash sharoitida moliyaviy holat tahlili va auditining nazariy va uslubiy asoslari**» deb nomlanib, unda moliyaviy holat tahlilining mohiyati, nazariy-uslubiy va tashkiliy asoslari, temir yo'l transporti korxonalarida moliyaviy holat tahlili ko'rsatkichlarini tasniflash va baholash mezonlari, moliyaviy holat audit borasidagi xalqaro tajriba va uni temir yo'l transporti sohasiga transformatsiya qilish yo'llari tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda temir yo'l transporti tashkil topganidan buyon iqtisodiyotning real sektori korxonalari bilan hamjihatlikda samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Ayniqsa, temir yo'l tarmog'ida sanoat ishlab chiqarishi ulushini ortib borayotganligi, qurilish-pudrat faoliyati yer osti va yer usti metropolitenlarning rivojlanishi bilan birgalikda yo'lovchi va yuk tashish hajmining ko'payishi bu sohadagi xizmatlarga yangicha talablarni qo'yimoqda.

Temir yo'l transporti korxonalarida moliyaviy holat tahlili korxonaning moliyaviy barqarorligini, samaradorligini va uzoq muddatli faoliyat qobiliyatini

baholashga xizmat qiladi. Bu soha o'zining yuqori kapital talabchanligi va uzoq muddatli investitsiyalar zarurligi bilan ajralib turadi. Shunday ekan, moliyaviy holat tahlili orqali korxonaga sarflangan investitsiyalarning qaytarilishi, aktivlardan foydalanish darajasi va to'lov qobiliyati kabi ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Temir yo'l transportidagi moliyaviy holat tahlilida maxsus koeffitsiyentlar, xususan, aktivlarning joriy va uzoq muddatli faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun naqd pul oqimlari, qarzlik koeffitsiyenti va foyda rentabelligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, transporti sohasining spetsifikasiga ko'ra, kapital sarflari va amortizatsiya xarajatlari dinamikasiga e'tibor qaratiladi, chunki ushbu korxonalarda asosiy vositalarning texnik holati moliyaviy barqarorlik va xarajatlarning muvofiqligini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'ladi.

Aktivlari va majburiyatlar — korxonalarning iqtisodiy salohiyatini belgilab beruvchi muhim komponentlar hisoblanadi. Sof aktivlar buxgalteriya balansining aktiv va majburiyatlar qismlarining farqi sifatida aniqlanib, ular korxonaning moliyaviy holati va faoliyat samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, uzoq muddatli va joriy aktivlar bo'yicha iqtisodiy salohiyat tuzilmasini shakllantirish asosida sof aktivlar qiymatini baholash bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xususan, sof aktivlar qiymati quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$SA_q = A_q - M_q^5$$

Bunda,

SA_q – sof aktivlar qiymati;

A_q – uzoq muddatli va joriy aktivlar qiymati;

M_q – majburiyatlar va qarzlar.

Hozirgi paytda aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitali 3 xil manba hisobidan ko'paytirilishi belgilab qo'yilgan:

a) jamiyatning mol-mulki hisobiga;

b) jamiyat ishtirokchilarining qo'shimcha hissalarini hisobiga;

v) jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslarning hissalarini hisobiga.

Yuqorida ta'kidlanganidek, jamiyatning xususiy kapitali manbalarini uning mol-mulki hisobiga ko'paytirish qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar va kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralardan sotib olingan xususiy ulushlarni (aksiyalarni) ayirib tashlagan holda erishilgan natija asosida shakllantiriladi.

Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatining Ustav kapitalini ko'paytirishga qaratilgan mol-mulkini (UK_{mm}) hisoblash muhimdir:

$$UK_{mm} = SA_q - UK_q - ZK_q^6$$

Bunda,

SA_q – Sof aktivlar qiymati;

UK_q – Ustav kapitali qiymati;

ZK_q – Rezerv kapitali qiymati.

⁵ Xasanov B.A., N.F.Karimov, B.Xamdamov, S.N.Tashnazarov, N.Sh.Xajimuratov, M.X.Xodjayeva, Sh.A.Tojiboyeva. Moliyaviy tahlil. Darslik. – T.: "Iqtisodiyot", 2019. 736 b.

⁶ Muallif ishlanmasi

Shuni inobatga olib, xo‘jalik subyektlarining aktivlari va majburiyatlarini baholash uslubi sof aktivlar qiymatini shakllantirish uchun aktiv-milliy kapital nisbati, majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti hamda 25%dan kam bo‘lmagan likvidlik darajasidan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Natijada, korxonaning moliyaviy mustaqilligi va risk darajasi, qarzlarini qaytarish salohiyati va moliyaviy barqarorlik darajasi, qisqa muddatli majburiyatlarni o‘z vaqtida to‘lash qobiliyatiga ega yoki yo‘qligi aniqlanadi.

“O‘ZTEMIRYO‘LYO‘LOVCHI” Aksiyadorlik jamiyatining asosiy faoliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlari dinamikasining tahlilini 1-jadval keltirilgan.

1-jadval

2019-2023-yillarda «O‘ZTEMIRYO‘LYO‘LOVCHI» aksiyadorlik jamiyatining asosiy faoliyati bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi⁷

Ko‘rsatkichlar nomi	2019	2020	2021	2022	2023
1.Yo‘lovchi aylanmasi, mln. yo‘l/km	4385,2	1794,95	3130,2	3549,4	3903,7
O‘shish(kamayish) surati,%		40,9	174,4	113,4	110,0
1.1.Mahalliy yo‘nalish, mln. yo‘l/km	2376,1	1296,8	2733,8	3028,2	3352,7
O‘shish(kamayish) surati,%		54,6	210,8	110,8	110,7
1.2.Xalqaro yo‘nalish, mln. yo‘l/km	492,3	152,4	19,7	115,7	190,6
O‘shish(kamayish) surati,%		31,0	12,9	587	164,7
1.3.Shahar atrofi yo‘nalishi, mln. yo‘l/km	1516,8	345,7	376,6	405,5	360,5
O‘shish(kamayish) surati,%		22,8	109,0	107,6	88,9
2.Tashilgan yo‘lovchilar, ming kishi	23372,4	6279,0	7968,2	9139,2	9809,7
O‘shish(kamayish) surati,%		26,9	126,9	114,7	107,3
2.1. Mahalliy yo‘nalish, ming kishi	3794,9	2021,1	4127,0	4916,6	5585,1
O‘shish(kamayish) surati,%		53,3	204,2	119,1	113,6
2.2.Xalqaro yo‘nalish, ming kishi	884,9	215,2	19,3	204,6	330,6
O‘shish(kamayish) surati,%		24,3	9,0	10,62	161,6
2.3.Shahar atrofi yo‘nalishi, ming kishi	18692,6	4042,8	3822,0	4017,9	3894,0
O‘shish(kamayish) surati,%		21,6	94,6	105,1	96,9
3.Jo‘natilgan yo‘lovchilar, ming kishi	22886,5	6157,8	7949,4	9012,6	9626,5
O‘shish(kamayish) surati,%			129,2	113,4	106,8
3.1.Mahalliy yo‘nalish, ming kishi	3794,9	2021,1	4127,0	4916,6	5585,1
O‘shish(kamayish) surati,%		53,3	204,2	119,1	113,6
3.2.Xalqaro yo‘nalish, ming kishi	399,0	94,0	0,4	78,0	147,4
O‘shish(kamayish) surati,%		23,6	0,4	197,53	188,9
3.3.Shahar atrofi yo‘nalishi, ming kishi	18692,6	4042,8	3822,0	4017,9	3894,0
O‘shish(kamayish) surati,%		21,6	94,6	105,1	96,9

Yuqoridagi jadvalning ko‘rsatishicha, yo‘lovchi aylanmasi tahlilida 2023-yilda nisbatan yuqori natija (3903,7)ni ko‘rsatgan. Unga ko‘ra mahalliy yo‘nalishda 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 10,7 foizga ko‘p bo‘lgan. Xalqaro yo‘nalishda mazkur ko‘rsatkich (190,6) bo‘lib, 2022-yilga nisbatan 90,6 foizga ortgan. Tashilgan yo‘lovchilar sonini tahlil qilsak, umumiy yillarga nisbatan

⁷ «O‘ZTEMIRYO‘LYO‘LOVCHI» aksiyadorlik jamiyatining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2023-yilda nisbatan yuqori natija (9809,7) qayd etilgan. Mahalliy yo‘nalish, xalqaro yo‘nalish va shahar atrofi yo‘nalishida ham 2023-yilda boshqa yillarga nisbatan samarali natija qayd etilgan.

Mamlakatimizda transport sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning barqaror va samarali faoliyati umumiy iqtisodiy o‘rishga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Transport tashkilotlarining moliyaviy holatini aniq va xolisona baholash, ularning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, shuningdek, xavflarni baholash va ichki nazorat tizimlarini rivojlantirish ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun, ushbu mavzudagi izlanishlar va amaliyotdagi yangi yondashuvlarning tatbiqi O‘zbekistondagi transport tashkilotlarining samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida dolzarb sanaladi.

Moliyaviy holat auditi, uning uslubiy masalalarini takomillashtirish transport tashkilotlari faoliyatini shaffoflashtirish va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) transport tashkilotlarining moliyaviy holatini tahlil qilishda eng ishonchli va zamonaviy vosita hisoblanadi. Ushbu standartlar transport tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni aniq va xalqaro hamjamiyatda tushunarli shaklda taqdim etishni ta‘minlaydi. Bu, o‘z navbatida, korxonalarining global investorlarga ochiqqligini oshiradi va ularning xalqaro bozordagi ishonchliligini ta‘minlaydi.

Xulosa qilib ta‘kidlash mumkinki, dissertatsiya ishining ushbu bobida moliyaviy holat tahlilining mohiyati, nazariy-uslubiy va tashkiliy asoslari, temir yo‘l transporti korxonalarida moliyaviy holat tahlili ko‘rsatkichlarini tasniflash va baholash mezonlari, moliyaviy holat auditi borasidagi xalqaro tajriba va uni temir yo‘l transporti sohasiga transformatsiya qilish yo‘llari bo‘yicha muallifning qarashlari hamda fikrlari bayon etilgan. Xususan, sof aktivlar qiymatini hisoblashning yangicha usuli taklif etilgan hamda moliyaviy holat tahlili va auditini takomillashtirish yuzasidan xulosalar hamda takliflar shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«Temir yo‘l transporti korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda moliyaviy holat tahlili usullarini takomillashtirish»** deb nomlanib, unda korxonaning iqtisodiy resurslari, uning moliyaviy tuzilmasi va to‘lov qobiliyatini moliyaviy holatga ta‘sirining tahlili, moliyaviy barqarorlik va ishchanlik ko‘rsatkichlari tahlilini takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l tarmog‘i ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish kabi masalalar tadqiq qilingan.

Moliyaviy barqarorlik korxonaning moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish, kelajakdagi faoliyatini barqaror davom ettirish va ichki va tashqi inqirozlarga qarshi tura olish qobiliyatini ifodalaydi. Temir yo‘l transporti korxonalarida moliyaviy barqarorlik ularning asosiy faoliyat yo‘nalishlari, moddiy-texnik bazasi, xizmat ko‘rsatish sifatini saqlab qolish, investitsiyalar va innovatsiyalarni jalb qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy barqarorlik, shuningdek, temir yo‘l transportida uzluksiz va samarali xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash, sarmoyadorlar va kreditorlar ishonchini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda, "O'zbekiston temir yo'llari" AJning asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilish maqsadga muvofiqdir (2-jadval).

2-jadval

"O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2019-2023-yillardagi asosiy faoliyat ko'rsatkichlarining tahlili, trln. so'm⁸

Ko'rsatkichlar	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.
Sotishdan olingan sof tushum	8 021	9 687	10 543	11 411	12 656
Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi	6 362	5 575	7 566	8 500	10 075
Davr xarajatlari	710	1 144	1 281	1 393	1 416
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	508	2 828	1 684	1 387	1 115
Soliqlar (daromad solig'i)	28	22	2	20	33
Moliyaviy natija (sof foyda /zarar)	413	118	109	111	170


Yuqoridagi jadvalda "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining 2019-2023-yillardagi asosiy faoliyat ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Bu ko'rsatkichlar sotishdan olingan sof tushum, sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, soliqlar va moliyaviy natijalarni o'z ichiga oladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2019-yildan 2023-yilgacha kompaniya tushumi o'sib borgan. 2019-yildagi 8 021 trln so'mlik tushum 2023-yilda 12 656 trln so'mgacha yetgan, bu esa kompaniyaning o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. Davr xarajatlari ham yillar davomida oshgan. Moliyaviy natijalar ham muhim o'zgarishlarni ko'rsatadi. 2020 va 2021-yillarda sof foyda kamaygan, ammo 2021-2023-yillarda yaxshilangan, bu esa kompaniyaning rentabelligi oshganini anglatishi mumkin.

O'zbekiston temir yo'l korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash muammolari mavjud. Masalan, joriy moliyaviy tizimdagi ba'zi to'siqlar, likvidlik muammolari va sarmoyalarning yetishmasligi korxonalarning moliyaviy barqarorligini xavf ostiga qo'yadi. Bundan tashqari, temir yo'l infratuzilmasiga kerakli darajada sarmoya yo'naltirilmaganligi ham moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, O'zbekistondagi temir yo'l transporti korxonalarida moliyaviy barqarorlikni oshirish uchun zamonaviy moliyaviy boshqaruv usullarini joriy qilish muhim vazifa hisoblanadi.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJning temir yo'l transportida yuklarni jo'natish hajmi 2019-2023-yillarda qanday o'zgarganligi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2019-yilda yuklarni jo'natish hajmi 70,1 million tonnani tashkil qilgan. Mazkur

⁸ "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

ko'rsatkich yillar davomida asta-sekin oshib borib, 2023-yilda 73,7 million tonnaga yetgan (1-rasm).



1-rasm. 2019-2023-yillarda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning temir yo‘l transportida yuklarni jo‘natish hajmi, mln. tonna⁹

Yuqoridagi ma’lumotlar yuk tashish hajmining yildan-yilga barqaror o‘sib borayotganligini va “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning yuk tashish bo‘yicha ishonchli transport vositasi ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, 3-jadvalda temir yo‘l transporti orqali 2019-2023-yillarda tashilgan yo‘lovchilar haqidagi ko‘rsatkichlar keltirilgan. Jadvalda ikki asosiy ko‘rsatkich yo‘lovchi aylanmasi (mln. yo‘lovchi-km) va tashilgan yo‘lovchilar soni (mln. kishi), shuningdek, o‘shish sur‘atlari ham ko‘rsatilgan. Yo‘lovchi aylanmasi 2019-yilda 4 385,2 million yo‘lovchi-km bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 3 903,7 million yo‘lovchi-km.ga pasaygan. Bu esa temir yo‘l transportining 2020-yildagi pandemiya ta’siridan so‘ng yana barqarorlashish jarayonida ekanligini ko‘rsatadi.

3-jadval

Temir yo‘l transporti orqali 2019-2023-yillarda tashilgan yo‘lovchilar to‘g‘risida malumotlar taxlili¹⁰

Ko‘rsatkichlar	2019y.	2020y.	2021-y.	2022y.	2023y
Temir yo‘l transporti yo‘lovchi aylanmasi, mln. yulovchi-km	4 385,2	1 794,9	3 130,1	3 549,4	3903,7
O‘shish sur‘ati, %	101,3	40,9	174,4	113,4	110,0
Temir yo‘l transporti orqali tashilgan yo‘lovchilar soni, mln. kishi.	23,37	6,28	7,97	9,14	9,81
O‘shish sur‘ati, %	103,3	26,9	126,9	114,7	107,3

⁹ “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning hisobotlari asosida muallif ishlanmasi

¹⁰ “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tashilgan yo'lovchilar soni 2019 yilda 23,37 million kishi bo'lib, 2023-yilda 9,81 million kishiga pasaygan. Bu ko'rsatkich pandemiya davrida va undan keyin temir yo'l transportiga bo'lgan talabning o'zgarishini ko'rsatadi.

Moliyaviy barqarorlik omili tavakkalchilik korxona egalari va kreditorlar o'rtasida qanday taqsimlanganligini ko'rsatadi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashda avtonomiya, moliyaviy qaramlik, o'z mablag'larining qarz mablag'lariga nisbati, o'z-o'zidan ishlaydigan kapitalni ta'minlash, xususiy kapitalni to'plash koeffitsiyentiga muhim ahamiyat beriladi (4-jadval).

4-jadval

2019-2023-yillarda "Toshkent yo'lovchi vagonlarni qurish va ta'mirlash" AJning moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari tahlili¹¹

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	Normativ
Uzoq muddatli aktivlar	20 069 841	19 333 167	18 181 815	16 431 465	14 163 782	
Joriy aktivlar	133 644 954	141 951 477	145 516 801	196 357 070	161 621 200	
O'z mablag'lari manbasi	73 451 853	74 695 182	75 547 945	79 930 801	86 999 042	
Rezerv kapitali	33 484 669	34 151 451	34 090 125	33 878 909	33 838 570	
Majburiyatlar	80 394 158	97 613 287	88 150 671	132 857 734	88 785 940	
Uzoq muddatli majburiyatlar	0	0	0	0	0	
Koeffitsiyentlar						
1.Moliyaviy mustaqillik (avtonomiya) koeffitsiyenti	0,5	0,5	0,5	0,4	0,5	Normal darajasi: 0,5 va undan yuqori (optimal darajasi: 0,6-0,7)
2.Uzoq muddatli moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	0,5	0,5	0,5	0,4	0,5	Normal darajasi: 0,9 Kritik darajasi: 0,75
3.Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti	0,4	0,5	0,5	0,6	0,5	Optimal darajasi: 0,5
4.O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti	0,5	0,5	0,5	0,4	0,5	Normal darajasi: 0,1 va undan yuqori
5.Kapitallashuv koeffitsiyenti	1,5	1,3	1,2	1,7	1,0	1 dan yuqori bo'lishi uning qarz kapitaliga qaramligini bildiradi.
6.Moliyalashtirish koeffitsiyenti	1,9	2,1	2,2	2,4	2,6	Qancha kichik bo'lsa qaramlik kuchayadi

¹¹ 2021-2023-yillar bo'yicha TVRZ" AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Mazkur jadvalda uzoq muddatli moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti kritik darajasidan ham past natijaga erishilgan. Ushbu koeffitsiyent uchun me'yoriy qiymatni belgilash deyarli mumkin emas. Muayyan korxona uchun normal qiymat tahlilchi tomonidan belgilanishi kerak. Bu qiymat qanchalik yuqori bo'lsa, korxona barqarorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Kapitallashuv koeffitsiyenti ham 2021 va 2022 yil 1 dan yuqori bo'lgan ko'rsatkichga ega bo'lib qarz kapitaliga qaramlilikni ko'rsatgan, lekin 2023 yilga kelib, normal holatga kelgan. Qolgan koeffitsiyentlar barchasi yaxshi holatga erishilgan.

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini tasniflash asosida korxonaning moliyaviy holatini kompleks baholashda ballik reyting tizimidan foydalanish taklifi asoslandi (5-jadval).

5-jadval

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini tasniflash asosida korxonaning moliyaviy holatini kompleks baholashda ballik reyting tizimi¹²

Ko'rsatkichkar nomi	1 guruh	ball	2 guruh	ball	3 guruh	ball
1.Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (K1)	$K1 > 0,75$	15	$K1 > 0,5$	10	$K1 < 0,5$	5
2.To'lov qobiliyati (qoplash) koeffitsiyenti (K2)	$K2 \geq 1,25$	15	$K2 \geq 0,75$	10	$K2 \geq 0,25$	5
3.O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti (K3)	$K3 \geq 0,2$	15	$K3 \geq 0,1$	10	$K3 \geq 0$	5
4.O'z mablag'lari rentabelligi koeffitsiyenti (K4)	$K4 > 0,2$	15	$K4 > 0,1$	10	$K4 < 0,1$	5
5.Aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti (K5)	$K5 > 0,2$	15	$K5 > 0,1$	10	$K5 < 0,1$	5
6.O'z va qarz mablag'larining nisbat koeffitsiyenti (K6)	$K6 > 1$	15	$K6 > 0,5$	10	$K6 > 0$	5
7.Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti (K7)	$K7 < 0,5$	10	$K7 = 0,5$	5	$K7 > 0,5$	0
Jami:		100		65		30

Tadqiqotlar natijasida moliyaviy holat ko'rsatkichlarini baholashda yagona yondashuvning mavjud emasligi aniqlandi. Bunda BMT ekspertlari taklif etgan 20 ta koeffitsiyentning chegaraviy mezonlari turlicha ekanligi oqibatida mazkur

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

koeffitsiyentlar asosida temir yo‘l korxonasining faoliyatiga kompleks baho berish va optimal qaror qabul qilishda qiyinchilik tug‘diradi.

Yuqoridagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish maqsadida ilmiy ishda moliyaviy koeffitsiyentlarni yuqori va quyi chegaralarini tartibga soluvchi mezonlarni baholash usuli sifatida ballik reyting tizimidan foydalanish taklif etildi.

Xususan, har bir moliyaviy koeffitsiyentning baholash mezonlari turlicha bo‘lishiga qaramasdan, ularni 3 guruhga ajratib, quyi, o‘rta va yuqori darajalarga ajratib, 5, 10 va 15 ballar asosida baholanadi. Natijada 0,5 dan 5 gacha bo‘lgan koeffitsiyentlar oralig‘idagi 20 dan ortiq moliyaviy ko‘rsatkichlarni kompleks baholash imkoniyati yaratiladi.

Temir yo‘l transporti korxonalarining iqtisodiy barqarorligi va faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy holat ko‘rsatkichlari asosiy mezon hisoblanadi. Bu korxonalar yirik infratuzilmaviy subyektlar bo‘lgani bois, ularning iqtisodiy nochorligini erta aniqlash — butun transport tizimi barqarorligi uchun muhimdir.

Shuni inobatga olib, temir yo‘l transporti korxonalari moliyaviy holatining moliyaviy koeffitsiyentlar asosidagi integral indeksi yordamida ishlab chiqilgan reyting baholash indikatorlari vositasida korxonalarning iqtisodiy nochorligini diagnostika qilish taklif etiladi.

Mazkur yondashuv nafaqat tahlil samaradorligini oshiradi, balki tahlilni tizimlashtiradi, avtomatlashtirish imkonini beradi hamda tarmoq miqyosidagi qarorlar qabul qilishda asos bo‘ladi. Shu tariqa, temir yo‘l transporti sohasida iqtisodiy nochorlikni erta aniqlash va uni oldini olish bo‘yicha ishonchli diagnostika vositasi shakllanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston ulkan Temir yo‘l transporti salohiyatiga ega bo‘lib, mavjud Temir yo‘l tarmog‘i yo‘nalishlarida barcha turdagi yuklar va yo‘lovchilarni tashishda mamlakatning ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyatlarga ega.

Mazkur tadqiqot ishida O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti tarmog‘i faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish masalalari ko‘rib chiqilgan hamda mazkur ko‘rsatkichlarni modellashtirishda ekonometrik usullar va modellardan foydalanish yo‘nalishlari tadqiq qilingan. Temir yo‘l transporti tarmog‘i ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va modellashtirishda ekonometrik usullar va modellar ularning “tor joylari”ni aniqlashga, faoliyat ko‘rsatkichlarini kelgusi davrlarga prognoz qilishga, omillar o‘rtasida bog‘lanishlarni aniqlashga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Temir yo‘l tarmog‘i faoliyati ko‘rsatkichlarini ko‘p omilli ekonometrik model tuzib tahlil qilish uchun mazkur modelda qatnashadigan omillarni tanlab olish zarur.

Ko‘p omilli ekonometrik modelda natijaviy omil bo‘lib, moliyaviy natijalar, trln. so‘m (Y) hisoblanadi. Ta’sir etuvchi omillar esa — tushum, trln. so‘m (X_1),

tannarx, trln. so‘m (X2), davr xarajatlari, trln. so‘m (X3), moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlari, trln. so‘m (X4), soliqlar, mlrd. so‘m (X5).

Temir yo‘l transporti tarmog‘ida moliyaviy natijalar (Y) ko‘rsatkichiga ta‘sir etuvchi omillar bo‘yicha tuziladigan ko‘p omilli ekonometrik modelga omillarni tanlash uchun, omillar o‘rtasida korrelyatsion tahlil o‘tkazamiz. Omillar o‘rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlarini hisoblaymiz. Omillar o‘rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Omillar o‘rtasida hisoblangan korrelyatsion matritsa¹³

Covariance Analysis: Ordinary

Sample: 2010 2024

Included observations: 15

Correlation

t-Statistic

	Y	X1	X2	X3	X4	X5
Y	1.000000					
X1	0.778230	1.000000				
	6.557553	-----				
	0.0000	-----				
X2	-0.734046	-0.631447	1.000000			
	-5.719637	-3.675998	-----			
	0.0000	0.0521	-----			
X3	-0.836404	0.575022	-0.610206	1.000000		
	-9.11982	1.489656	-3.614243	-----		
	0.0000	0.2457	0.0534	-----		
X4	-0.871095	-0.669923	0.554039	-0.659052	1.000000	
	-9.385612	-3.774719	1.374627	-3.74762	-----	
	0.0000	0.0511	0.2507	0.0523	-----	
X5	0.610329	0.096092	0.348488	-0.021394	-0.097901	1.000000
	3.614245	0.510833	1.967354	-0.113235	-0.520546	-----
	0.0538	0.6135	0.0591	0.9107	0.6068	-----

6-jadvaldan ko‘rish mumkinki, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari — bu natijaviy omil (Y) va unga ta‘sir etuvchi omillar (X_i) o‘rtasidagi bog‘lanishlar zichligini ko‘rsatadi. Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omil – Temir yo‘l transporti tarmog‘ida moliyaviy natijalar (Y) va ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasida turli xil bog‘lanishlar mavjudligini ko‘rsatmoqda.


Demak, omillar o‘rtasida multikollinearlik hamda natijaviy omil qatorida geteroskedastlik mavjud emasligini hisobga olgan holda Temir yo‘l transporti tarmog‘ida moliyaviy natijalar (Y) va unga ta‘sir etuvchi omillar (X_i) bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik model tuzamiz. Mazkur ko‘p omilli ekonometrik model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \dots + \beta_n x_n + \varepsilon, \quad (1)$$

¹³ Muallif ishlanmasi.

bu yerda y – natijaviy omil, x_i – ta’sir etuvchi omillar, ε – tasodifiy xato. Ko‘p omilli ekonometrik modeldagi (1) noma’lum $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n$ parametrlar qiymatlarini aniqlashda “eng kichik kvadratlar usuli” dan foydalandik.

Temir yo‘l transporti tarmog‘ida moliyaviy natijalar (Y) bo‘yicha hisoblangan (2) ko‘p omilli ekonometrik modelning haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o‘rtasidagi farqlar (Residual) quyidagi 2-rasmida keltirilgan.



2-rasm. Temir yo‘l transporti tarmog‘ida moliyaviy natijalarning (Y) haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o‘rtasidagi farqlar (Residual) grafigi¹⁴

